



PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI VA VAZIFASI

Xamzayeva Malika Normurod qizi

Karimova Gulchiroy Farhod qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Umumiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari, rivojlanish tarixi haqidagi izlanishlar tahliliga oid muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'quv predmeti, psixologiyaning vazifalari, individual-psixologik xulq-atvor, psixika, ong, pozitiv va normativ fanlar, materiya, psixik jarayonlar.

Psixologiya oliy o'quv yurtlarida o'quv predmeti va fan sifatida o'rganiladi. Psixologiya talabalarning umumkasbiy tayyorgarligiga yonaltirilgan o'quv fanlari tizimidan joy olgan, uni o'rganish uchun ma'lum o'quv soatlari ajratilgan va turli shakldagi mashg'ulotlar: ma'ruza va seminarlar nazarda tutilgan. Psixologiyani fan sifatida o'rganish bilan uning qanday fan ekanligi xususiyatlari va nimalarni o'rganishi haqida bilimlarga erishiladi. Talabalar psixologiyani o'rganib bu fan voqelikning alohida bir sohasi bo'lgan psixik (yoki ruhiy) hayot sohasini o'rganishini tushunib yetadilar.

Psixologiya fanining ma'lumotlaridan amaliy maqsadda va ta'lim-tarbiya ishida, shuningdek, ishlab chiqarishda, tibbiyotda, san'at va shunga o'xshash sohalarda foydalanish uchun psixikaning taraqqiyot qonuniyatlarini bilish kerak. Psixologiya psixikaning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beradi. Psixologik bilim va malakalar talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati, oilaviy hayoti, bolalar tarbiyasi va boshqalarda asqotadi. Eng asosiysi, psixologik bilimlar talabalarga o'zlarini anglashda, o'z ustida ishlashda va qiziqish ijodiy imkoniyatlarini dolzarblashtirishlarida barkamol shaxs bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya fani o'ziga xos fan bo'lgani uchun oliy o'quv yurtlari talabalari o'rganadigan ilmiy fanlar tizimida alohida o'rin egallaydi.

"Psixologiya" atamasi ikki yunoncha so'zdan kelib chiqqan: "psyuxe"-jon, ruh va "logos"-ta'limot, so'zlari. Bir necha yuz yilliklar davomida psixologiya tomonidan

o'rganiladigan hodisalar umumiy "ruh", tushunchasi bilan belgilanib, falsafa fani bir bo'limining predmeti bo'lib hisoblangan.

"Psixologiya, aniqrog'i "psixe"so'zining kelib chiqishini tushuntirib berish uchun yunon afsonalariga murojaat qilish kerak. Afroditaning o'g'li (lotin an'analarida -Veneraning) Erot (Amur), go'zal Psixeyani sevib qoladi. Lekin Afrodita came ma'budi bo'lgan o'g'lining o'z qismatini oddiy qiz bilan bog'lamoqchi ekanligidan norozi bo'lib, Psixeyani qator sinovlardan o'tishga majbur qilgan holda sevishganlarni bir-biridan ayirishga urinar edi. Ammo Psixeyaning muhabbati shunday kuchli, Erot bilan uchrashishga intilishi esa shunchalar yuksak bo'ladiki, bundan barcha ma'budlar kuchli ta'sirlanishadi, unga Afroditaning barcha talablarini bajarishiga ko'mak berishga rozi bo'ladilar. Eron ham o'z navbatida, Zevsni Psixeyani ma'budaga aylantirish uchun ko'ndirishga muvaffaq bo'ladi, natijada Psixeya abadiylikka erishadi va ular birlashadilar. Yunonlar uchun bu afsona



haqiqiy sevgining, inson ruhi yuksak rōyobining mumtoz namunasi bōlgan. Shu sababli, Psixeya -abadiylikka erishgan oddiy qiz, o'z mukammalligini izlovchi running time-line bo'lib qolgan.

Odamalar o'rganadigan boshqa fanlar singari psixologiya ham o'z o'rganish predmetiga ega. "Psixologiya" tushunchasining ma'nosidan kelib chiqqan holda, uning o'rganish predmeti psixika bo'ladi, deb aytishimiz mumkin. Psixologiya bu predmetning maxsus xossalari ajratadi. Shunday qilib, psixika-bevosita kuzatilmaydigan, ammo qōshimcha ifodalar orqali aniqlanadigan yaqqol bōlmagan voqelik. Psixika-turli yoshdagi insonlarda yoshi, jinsi, tarbiya sharoiti, ma'lum hayotiy vaziyat va boshqa bir qancha belgilarga ko'ra bir nusxaga ega bo'lmagan ob'ekt.

Psixika-faol, maqsadga muvofiq jarayon. Idrok qilish, xotira, ongning o'zini emas, balki shu kabi hodisalar jarayonlar xos bo'lgan insonning psixik faolligini namoyon qiladi. S.L.Rubinshteynning fikricha, psixikaning o'ziga xos xususiyati uning individga, sub'ektga tegishlilikidir. Boshqa xususiyati esa-sub'ektning psixikadan, ongdan mustaqil ob'ektga bo'lgan munosabati. "Har qanday psixik hodisa boshqalaridan ajratilib, nimaningdir kechinmasi ekanligiga binoan, ma'lum kechinma sifatida belgilanadi, ichki tabiati uning tashqi olamga bo'lgan munosabati orqali namoyon bo'ladi" degan edi.

Shunday qilib psixikani ilmiy tilda miyaning tashqi, shuningdek ichki olamni aks ettirish va shu asosda harakatni, xulq-atvorni tartibga solish qobiliyati sifatida ta'riflash mumkin. M.I.Yenikeevning ta'rifiga ko'ra, inson psixikasi-bu umuminsoniy tajribani o'zlashtirish asosida uning atrof-olam bilan faol o'zaro ta'sirini ta'minlovchi aks ettirib-tartibga soluvchi faoliyati. Psixika ta'rifidan kelib chiqqan holda, ikki asosiy vazifani bajaradi: aks ettiruvchi va regulations (moslashuvchanlik). P.A.Ponomarev psixikaning quyidagi vazifalarini ko'rsatib o'tadi: atrof-olam ta'sirlarining aks etishlari; insonlar xulq-atvorlari va faoliyatlarini tartibga solish; insonlarning atrof-olamdagi o'zlari tutgan o'rinlarini anglashlari.

Voqelikni psixik aks ettirish o'ziga xos xususiyatlarga ega: psixika ob'ektiv voqelikni haqqoniy aks ettiradi; faol harakatda namoyon bo'ladi.

Biz psixologiyaning predmetini to'liq bayon etish psixologiya fanining o'zini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

"Psixologiya" so'zi birinchi marta 1590-yilda nemis teolog olim R.Goklenius tomonidan qo'llanilgan. XVIII asrda Nevis olimi X.Volf birinchi marta ilmiy atamalar qatoriga "psixologiya" atamasini kiritgan. Psixologiya- ham qadimiy, ham ma'lum darajada yangi fan hisoblanadi. Qadimiy fan sifatida u ikki ming yil avval payday bo'lgan. XIX asrning 70-80-yillarida biz o'rganayotgan psixologiya mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan.

Psixologiya rivojlanish yo'lida uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tib, o'rganish predmeti va fan sifatidagi nomlanishini o'zgartirib borgan.

Psixologiyaning vazifalari asosan, quyidagilardan iborat:

- psixik hodisalarning mohiyatini va ularning qonuniyatlarini anglashni o'rganish;
- ularni boshqarishni o'rganish;
- olingan bilimlardan shakllangan fanlar va sohalar bilan bir qatorda turgan amaliyotning boshqa sohalarini samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish;



-amaliy xizmatning nazariy asosi bo'lib xizmat qilish;

Bu umumiy vazifalaridan tashqari hozirda psixologiya quyidagi xususiy vazifalar bilan ham shug'ullanmoqda: psixikaning payday bo'lishi va rivojlanishi; psixik faoliyatning nevrofiziologik asoslari; inson psixikasining ijtimoiy-tarixiy omillarga bog'liqligi; inson psixikasi tuzilishi va boshqalar.

Hozirgi zamon psixologiyasi yaxlit fanning o'zidan emas, balki mustaqil fan bo'lishga da'vogarlik qiluvchi ilmiy fanlar majmuasidan iborat. Bu majmuadan psixologiyaning ta'lim bilan bog'liq b'lgan asosiy va amaliy, umumiy va maxsus sohalari o'rin olgan. Psixologiya fanining asosiy sohalari odamlarning aniq bir faoliyati bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar, odamlarning xulq-atvor psixologiyasini bilish va tushuntirib berishda umumiy ahamiyatga ega.

Xulosa: Hozirgi paytda psixologlar, pedagoglar va metodistlar birgalikda ta'lim psixologiyasi muammolarini hal etishga e'tibor qaratishlari kerak. Hozirgi zamon psixologiyasining va psixologlarning eng muhim vazifasi o'quvchilarni mehnat va mehnat kasblariga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va tarbiyalashdan iborat. Bu asosan o'quvchilarda, talabalarda mehnatga nisbatan muhabbat va ishtiyoq uyg'otishdir. Har bir o'z kasbiga muhabbat qo'ygan pedagog insonlar psixologiyasini bilishi kerak bo'ladi. Bu faqat pedagoglarga emas, balki boshqa kasb egalariga ham kerak. Chunki insonlar haqidagi bilimlarni qo'lga kiritishimiz uchun avvalo psixologik bilimlardan xabardor b'lishimiz kerak. Jumladan, shaxs haqida fikr yurituvchi fanlar tarkibiga psixologiya va pedagogika fanlarini kiritish mumkin. Shunga ko'ra pedagogika shaxsni ta'lim-tarbiya jarayonida kamol topishini tadqiq qiladi, psixologiya esa shaxsda kechadigan ruhiy jarayonlarni o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P.I.Ivanov.M.E.Zufarova Umumiy Psixologiya
2. G'oziyev E "Umumiy psixologiya" 1-kitobi Toshkent 2004
3. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.
4. qizi Imonova, MB (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. National Scientific Research International Journal natijalari , 2 (3), 156-161.
5. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.
6. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.
7. Имонова , М., & Тожиева , Д. (2023). Роль сиблинговых отношений в когнитивном развитии детей . Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 447-453.



8. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya–qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 35-37.
9. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 74-76.
10. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1399-1403.
11. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. *Science and innovation*, 2(B3), 355-358.
12. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.
13. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. *Journal of Discoveries in Applied and Natural Science*, 1(1), 62-67.
14. qizi Imonova, M. B. (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(3), 156-161.
15. Иманов, Б., & Иманова, М. Б. Қ. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1158-1162.
16. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(10), 101-104.
17. Imanov, B. B. (2023). O'QUVCHILARNING TABIATDA SODIR BO'LAYOTGAN FIZIK JARAYONLARNI ANGLAB ETISHDA TAJRIBALARNING O'RNI. *Interpretation and researches*, 2(1).
18. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. *Science and innovation*, 2(B3), 355-358.
19. Imanov, B. B. (2021). Competences in the quality of education and their organization. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(5), 419-424.
20. Imanov, B. B. (2021). Lesson and its analysis as factor of increasing the quality of education. *European scholar Journal*. Available online at//www. scholarzest. com, 1.
21. Summers, D., Kushzhanov, N., Almurzayeva, B., Yesengulova, M., Abdirakhmanova, Y., Safarov, R., & Imanov, B. MORAL DILLEMAS IN DIGITAL & FOREIGN WORLD. *BULLETIN OF NATIONAL ACADEMY OF SCIENCES OF THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN ISSN 1991-3494 Volume 2, Number 372 (2018)*, 68–74.
22. Berdievich, IB, & Nazinovich, SDND (2021). Dars va uning tahlili ta'lim sifatini oshirish omili sifatida. *Yevropa olimlari jurnali* , 2 (1), 42-45.
23. Mahmudov, YG, & Imanov, BB (2021). Dars sifati ko'rsatkichlari. *Osiyo ko'p o'lchovli tadqiqot jurnali* , 10 (10), 653-656.